

EKOLOGIK SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHDA EKOLOGIK JURNALISTIKANING ROLI

Janabay Kalibaevich MARZIYAEV

dotsent

Qoraqalpoq davlat universiteti

Nukus, O'zbekiston

j.marziyayev@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6837-0102>

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlatning ekologik siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ekologik jurnalistikaning o'rni va funktsional imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda "ekologik siyosat" tushunchasining nazariy-metodologik asoslari, davlatning barqarorlashtiruvchi roli hamda jamiyatda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish omillari ko'rib chiqilgan. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar (xususan, Germaniya) tajribasi qiyosiy o'rganilib, OAVning aholi bilan munosabat o'rnatish, "jashil iqtisodiyot"ni targ'ib qilish, ekologik ta'limni rivojlantirish va jamoatchilik nazoratini (publik kontrol) tashkil etish mexanizmi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ekologik siyosat, ekologik jurnalistika, ekologik ong, OAV, jamoatchilik nazorati, barqaror rivojlanish, jashil iqtisodiyot, ekologik ta'lim.

РОЛЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ В РЕАЛИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ

Жанабай Калибаевич МАРЗИЯЕВ

Доцент

Каракалпакский государственный университет

Нукус, Узбекистан

Аннотация

В данной статье анализируются роль и функциональные возможности экологической журналистики в успешной реализации государственной экологической политики и обеспечении экологической безопасности. В исследовании рассматриваются теоретико-методологические основы понятия «экологическая политика», стабилизирующая роль государства, а также факторы формирования экологического сознания и культуры в обществе. На основе сравнительного анализа опыта Узбекистана и зарубежных стран (в частности, Германии) освещаются механизмы взаимодействия СМИ с населением, продвижения «зеленой экономики», развития экологического образования и осуществления общественного контроля (publik kontrol).

Ключевые слова: экологическая политика, экологическая журналистика, экологическое сознание, СМИ, общественный контроль, устойчивое развитие, зеленая экономика, экологическое образование.

Hozirgi vaqtda davlatning barqaror va strategik rivojlanishida ekologik xavfsizlikni ta'minlash asosiy maqsaddir. N.G. Rogojina ta'kidlaganidek, ekologik talablarni qondirish ijtimoiy davlatning yangi yo'nalishi bo'lib, davlatning barqarorlashtiruvchi rolini ko'rsatadi [3].

“Ekologik siyosat” tushunchasi tuzilishi va muammolar ko'lamini jihatidan turlicha ta'riflanadi [2]. D.I. Romasevich unga atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish, insoniyatni saqlash va rivojlantirish yo'lidagi davlat hamda nodavlat institutlari faoliyati sifatida qaraydi [4]. Bu sohada to'rtta qarash mavjud: iqtisodiyot va ekologiya davlatga bo'ysunishi; ularning mustaqil soha sifatida rivojlanishi; ekologiya davlat siyosat va iqtisodiyotga ta'siri; jamiyat qadriyatlari asosida o'rganish.

O'zbekiston mustaqillikning ilk yillaridayoq ekologiya sohasida xalqaro normalarga mos qonunchilik bazasini shakllantirdi. Orol muammosiga jahon e'tiborini qaratish maqsadida 1992-yili Nukus konferentsiyasi o'tkazilib, 1993-yili Xalqaro Orolni qutqarish jamg'armasi va davlatlararo kengash tuzildi.

Ekologik siyosat samaradorligi aholining ekologik ongiga bog'liq. Ekologik ong jamiyat va tabiat o'rtasidagi real munosabatlarni aks ettiruvchi g'oyalar, qarashlar va motivatsiyalar majmuidir [5]. U shakllangan jamiyatda huquqiy immunitet paydo bo'ladi, aholining mas'uliyati va ekologik tashabbuslarda uyushishi ortadi.

Mamlakatda bu borada islohotlar izchil olib borilmoqda. Prezidentimizning 2017-yilgi farmon va qarorlari bilan Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qayta tashkil etilib, uning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 434-sonli qarori bilan Ekologik ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasi tasdiqlandi [1]. Unda maktabgacha ta'limdan tortib oliy o'quv yurtidan keyingi bosqichgacha uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya berish, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va sohani innovatsiyalar orqali rivojlantirishning asosiy maqsad va vazifalari belgilab berilgan.

Tadqiqotda qiyosiy-siyosiy, tizimli, funktsional hamda kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Ekologik siyosat va ekologik jurnalistika o'rtasidagi

aloqadorlikni, davlat tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijtimoiy ahamiyatini o'rganishda quyidagi ilmiy yondoshuvlar asos qilib olindi:

1. Manbashunoslik va huquqiy tahlil: O'zbekiston Respublikasining ekologiya sohasiga oid farmon va qarorlari, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha xalqaro va milliy qonunchilik bazasi manba sifatida tahlil qilindi.

2. Qiyosiy-tarixiy yondoshuv: Orol muammosi bo'yicha 1990-yillardan boshlangan xalqaro harakatlar va G'arbiy Evropa (xususan, Germaniya) tajribasidagi Ekologiya vazirliklari hamda OAV hamkorligi modeli solishtirildi.

3. Monitoring va media-tahlil: OAVning ekologik bilim berish, "jashil iqtisodiyot"ni targ'ib qilish va jamoatchilik nazoratini o'rnatishdagi o'zni funksional jihatdan baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ekologik ta'limni shakllantirishda o'quv muassasalari bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalarining ham o'ziga xos o'zni bor. Ya'ni davlatning ekologik siyosatini amalga oshirishda OAV aholi bilan kommunikatsiya (munosabat) o'rnatishda asosiy vositaga aylandi. Barqaror demokratik jamiyatlarda va alohida olingan mamlakatlarda OAV jamoatchilik fikrini shakllantirishning va hukumat qarorlariga ta'sir o'tkazishning samarali instituti ekanini isbotlangan.

Masalan, Evropa mamlakatlarida ekologik harakatlarning avj olishi bilan hukumat jamoatchilik fikriga quloq solishga majbur bo'ldi. Germaniyada 1980-yillarning oxirlaridan boshlab zararli maishiy va sanoat chiqindilarini qayta ishlash muammosi paydo bo'lgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi Germaniya hududida chiqindilarni yoqib yuboradigan korxonalarni qura boshlaganida, bu holat o'sha hududda yashab turgan fuqarolar, ekologik birlashmalar, kasaba uyushmalari va dindorlarning e'tirozlarini uyg'otgan [6]. Buning natijasida vazirlik o'z imidjini saqlab qolish uchun axborot siyosatini amalga oshirishga majbur bo'ldi. Axborot kampaniyasining maqsadli guruhlar keng jamoatchilik faollari, ishlab chiqarish va jamoat birlashmalarining xodimlaridan iborat bo'ldi. Vazirlik asosiy e'tiborni OAVga qaratib, paydo bo'lgan muammoni obyektiv yo'l bilan hal qilish uchun OAVda turli kampaniyalarni tashkil etdi.

O‘zbekistonda OAVning erkin faoliyat yurita boshlaganiga o‘ttiz yildan oshdi. Mahalliy ommaviy axborot vositalari ekologik masalalarni yoritishda xolis va aktiv bo‘lishga harakat qilmoqda. Ekologik siyosatni amalga oshirishda OAV imkoniyatlaridan foydalanishning quyidagi ustuvor printsiplari va ma'lumotlar bazasini shakllantirish zarurati aniqlandi:

Ochiq va erkin raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish: OAV tabiat va atrof-muhitga oid raqamli ma'lumotlardan foydalanishi uchun hukumat organlari tomonidan ochiq ma'lumotlar manbalarini takomillashtirilishi lozim. Masalan, muhofaza qilinadigan hududlar haqida keng ma'lumot olish uchun OAV xodimlarining vazirlikka rasmiy murojaat qilishiga to'g'ri kelmoqda, bu esa tezkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamoatchilik monitoringi va shaffoflik: Korxona va ishlab chiqarish maskanlarining yer va tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini monitoring qilishda OAV ishtirokini ta'minlash zarur. Bu umumdavlat boyliklaridan foydalanish ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga xizmat qiladi.

Ekologik ta'lim kontseptsiyasidagi ishtirokni oshirish: Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda OAVda turli mazmundagi ruknlar va doimiy dasturlar doirasida "tengdosh-tengdoshga" g'oyasi ostida ekologik ta'limning amaliy taraflari tushuntirib borilishi kerak.

Shuningdek, davlatning ekologik siyosatini amalga oshirishda OAVning roli quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Islohotlarni ommabop va tushunarli tilda etkazish: Davlatning ekologik siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni oddiy va amaliy tajribalar asosida etkazib berish. Masalan, Aholiga "O'zbekiston Qizil kitobi" nima ekanini, unga kiritilgan hayvonot va o'simliklar dunyosini nobud qilish qanday huquqiy va ekologik oqibatlarga olib kelishini konkret misollar bilan tushuntirish.

2. "Jashil iqtisodiyot"ni targ'ib qilish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "jashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosini yoritish,

qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ularning ekologik ahamiyatini innovatsion metodlar orqali aholiga tushuntirish.

3. Nodavlat va notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik: Aholining ekologik ehtiyojlarini o'rganuvchi nodavlat tashkilotlar bilan birgalikda ishlash OAVning auditoriya talablarini aniqroq bilishiga imkon beradi.

4. Ekologik tashabbuslarni ilgari surish: "Yashil makon" va shunga o'xshash ommaviy aktsiyalarni tashkil etish va yoritishda faollik ko'rsatish orqali auditoriya diqqatini muammoga qaratish.

5. Qonunlar ijrosi monitoringi va ekspertlar tahlili: Tabiatni muhofaza qilishga oid va boshqa qonunchilik hujjatlarining ijrosi yuzasidan soha ekspertlarini jalb qilgan holda analitik materiallar tayyorlash va e'lon qilish.

6. Ekologik audit va mustaqil surishtiruvlar: Xolis mutaxassislar ishtirokida atrof-muhitni ifloslantirayotgan korxonalarni aniqlab, OAVda tanqidiy-analitik materiallar yoritib borish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik siyosat va ekologik jurnalistika bir-birini to'ldiruvchi va tanqidiy tarzda harakatlantiruvchi ikki muhim institutdir. Davlat tomonidan qonunchilik va strategiyalar (masalan, Ekologik ta'lim kontseptsiyasi yoki "Jashil iqtisodiyot" strategiyasi) qanchalik mukammal yaratilmasin, agar jamiyatda ushbu normalarni qabul qilishga nisbatan ekologik ong va immunitet shakllanmasa, kutilgan samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

D.I. Romasevich [4] va E.V. Matveevalar [2] ta'kidlagan siyosiy-ekologik munosabatlar modeli O'zbekiston sharoitida ham o'z tasdig'ini topmoqda. Davlat mustaqilligining ilk yillarida Orol muammosini xalqaro darajaga olib chiqish, Nukus va Qizil o'rda konferentsiyalari, shuningdek, Xalqaro Orolni qutqarish jamg'armasining tuzilishi davlat ekologik siyosatining dastlabki muhim bosqichlari bo'lgan edi. Biroq zamonaviy bosqichda ekologik siyosat aholining kundalik turmush tarzi va huquqiy madaniyati bilan integratsiyalashuvni talab etadi.

N.G. Rogojina fikricha [3], ekologik talablarni qondirish ijtimoiy davlatning yangi yo'nalishi hisoblanadi. Bu jarayonda OAV faqatgina axborot uzatuvchi

emas, balki jamoatchilik nazoratini (publik kontrol) amalga oshiruvchi, "jashil" tashabbuslarni uyushtiruvchi hamda davlat bilan jamiyat o'rtasidagi ko'priklarni o'ynovchi asosiy organga aylanadi. M.A. Solomkina qayd etganidek [5], ekologik ong jamiyatning tabiatga bo'lgan real munosabatini aks ettiradi, OAV esa ana shu ongni shakllantiruvchi bosh omildir.

Germaniya tajribasi [6] ko'rsatadiki, ekologik muammolarni oshkora muhokama qilish va OAV orqali konstruktiv muloqot o'rnatish inqirozlarni yumshatishning eng samarali yo'lidir. O'zbekiston sharoitida OAV uchun ochiq ma'lumotlar bazalarini yaratish va ekologik audit jarayonlariga jurnalistlarni jalb qilish orqali ekologik siyosatning shaffofligini oshirish mumkin.

Ekologik siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ekologik jurnalistika shunchaki targ'ibotchi emas, balki jamiyatda ekologik ongni shakllantiruvchi, davlat organlari, tashkilotlari va korxonalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatuvchi va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi strategik hamkordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рогожина Н. Г. Экологическая политика развивающихся стран : учеб. пособие. – Москва : Аспект Пресс, 2015. – С. 27.
2. Матвеева Е. В. Межуровневые взаимодействия в общественной, государственной и мировой экологической политике : автореф. дис. ... д-ра полит. наук. – Саратов, 2012. – С. 34.
3. Ромасевич Д. Н. Глобальные проблемы современности и экологическая политика России : автореф. дис. ... д-ра полит. наук. – Москва, 2006. – С. 19.
4. Соломкина М. А. Экологическое сознание: понятие, типология, интерпретация // Экология человека. – 2000. – № 2. – С. 45.
5. Ўзбекистон Республикасида экологик таълимни ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 27 май 2019 й., 434-сон [Электрон манба]. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/4354743> (мурожаат қилинган сана: 2026-03-01).

6. Beziehungsspiele, Medien und Politik: Zur Funktion von Öffentlichkeitsarbeit in der Umweltpolitik. – München: Ökom Verlag, 1993. – S. 62–82, 94–98.